

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/

VOLUME-2, ISSUE-12

AKSIZOSTI TOVARLAR NARXLARINING KORXONA QIYMATIGA TA'SIRI

Yusufov Husan Shokir o'g'li
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti magistranti

Annotatsiya:

Mazkur maqola aksizosti tovarlar narxlарining korxona qiymatiga ta'sirini tahlil qilishga bag'ishlanadi. Bunda aksiz solig'i iqtisodiyotni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etib, narx siyosati va davlat soliq tizimini takomillashtirish yo'naliшlarida dolzarb hisoblanadi. Aksiz solig'i davlat daromadlarini shakllantirishda va muayyan tovar va xizmatlar iste'molini tartibga solishda muhim rol o'yнaydi. Ushbu maqolada aksizosti tovarlar narxlарining korxona qiymatiga ta'sirini takomillashtirish bilan bog'liq muhim masalalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Aksiz solig'i, aksizosti tovarlar, soliq faoliyati, korxona qiymati, moliya, bujet, soliq organlari, soliq stavkalari

Mamlakatimizda aksiz solig'i davlat tomonidan maxsus tovarlarga qo'yiladigan bilvosita soliqlar bo'lib, odatda, ularning narxlарiga qo'shiladi. Aksizlar iste'mol bozorida talabni boshqarish, ijtimoiy masalalarni hal qilish va davlat byudjetiga daromad olish maqsadida joriy etiladi. Aksizosti tovarlar, odatda, alkogol mahsulotlari, tamaki, yoqilg'i va hashamat buyumlaridan iborat bo'lib, ularning narxlari iqtisodiyotning turli segmentlariga, xususan, korxonalar qiymatiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi.


Shu bilan birga, aksiz solig'inining ta'siri nafaqat korxonaning ichki faoliyatiga, balki uning tashqi muhitiga ham bog'liq. Bozor sharoitlari, iste'molchilar talabining o'zgarishi, va xalqaro savdo ham aksiz solig'inining korxona qiymatiga ta'sirini belgilovchi muhim omillardir.

Shunday qilib, aksiz solig'inining oshishi korxonaning moliyaviy holatiga, bozor ulushiga va kapital qiymatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Korxona bu o'zgarishlarga tez va

VOLUME-2, ISSUE-12

samarali javob berish orqali o‘z rentabelligini saqlab qolish, bozor ulushini mustahkamlash va investorlar uchun jozibador bo‘lish imkoniyatini oshirishi mumkin.

Korxona qiymati esa kompaniyaning umumiy moliyaviy salohiyati va bozor qiymatini belgilovchi ko‘rsatkichdir. U nafaqat korxonaning sof foydasi va aktivlari qiymatiga, balki tashqi omillarga, jumladan, soliq yuklamasiga ham bog‘liqdir. Aksizosti tovarlar narxlarining oshishi yoki pasayishi korxonalar uchun quyidagi yo‘nalishlarda ta’sir ko‘rsatishi mumkin:



1-rasm. Aksizosti tovarlar narxlarining korxona qiymatiga ta’sir yo‘nalishlari

Bunda ushbu ta’sirlarni quyidagicha ifolalashimiz mumkin:


- Aksiz solig‘ining oshishi tovarlarning yakuniy narxiga qo‘shiladi, bu esa sotuv hajmining kamayishiga olib kelishi mumkin. Natijada korxonaning daromadlari pasayadi va qiymati kamayadi.

VOLUME-2, ISSUE-12

- Aksiz solig‘i yuqori bo‘lgan tovarlar uchun xomashyo yoki yarim tayyor mahsulotlarning xarid qiymati oshishi mumkin. Bu ishlab chiqarish jarayonida umumiy xarajatlarning ortishiga sabab bo‘ladi.

- Aksiz narxlari xalqaro miqyosda yuqori bo‘lsa, mahalliy korxonalar xorijiy raqobatchilarga nisbatan raqobatbardoshlikni yo‘qotishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, eksport salohiyatiga va bozor ulushiga ta‘sir qiladi.

Aksizlarning oshirilishi ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan bir qator ijobiy va salbiy ta‘sirlarga ega bo‘lishi mumkin:



2-rasm. Aksiz solig‘ining iqtisodiy jihatdan ijobiy va salbiy ta’sirlari

Aksiz solig‘ining oshishi korxonaning moliyaviy natijalari, bozor ulushi va kapital qiymatiga bir nechta o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Birinchi navbatda, aksizning oshishi natijasida korxonaning sof foydasi kamayadi, chunki mahsulotlar narxi oshadi va bu sotuvlarni kamaytiradi, shu bilan birga xarajatlar ortadi. Natijada, korxona operatsion daromadlarida salbiy ta’sirni sezishi mumkin, chunki narxlar oshishi sotuv hajmiga ta’sir ko‘rsatib, foydaning kamayishiga olib keladi.

Bozor ulushiga kelsak, aksiz narxlarining oshishi raqobatni kuchaytirishi mumkin. Agar raqobatchilar aksizni o‘z mahsulotlariga qo‘llamasa, bu korxonaning bozor ulushini kamaytiradi, chunki mahsulot narxlarining oshishi talabni kamaytirishi mumkin. Shuningdek, aksiz solig‘ining oshishi mahsulotlar importi va eksportiga ham

VOLUME-2, ISSUE-12

ta'sir qiladi, chunki mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun xarajatlar oshadi va bu eksportni qiyinlashtirishi mumkin, import esa ortishi mumkin.

Aksiz solig'ining oshishi, shuningdek, korxonaning aktivlarining qiymatiga ham ta'sir qiladi. Aktivlar qiymati pasayishi yoki ulardan samarali foydalanish zarurati tug'ilishi mumkin, bu esa kapital qiymatining kamayishiga olib keladi. Investorlar uchun bu holat moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilashga qaratilgan yangi strategiyalarni talab qiladi, chunki aksizning oshishi korxonaning rentabelligini kamaytirishi va investorlarning xavfini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, korxona o'z faoliyatini optimallashtirish va bozor sharoitlariga moslashish uchun yangi choralar ko'rishi zarur.

Aksiz solig'i tovarlar narxining oshishiga sabab bo'lib, bu korxonaning qiymatiga turli yo'llar orqali ta'sir ko'rsatadi. Aksiz solig'ining ahamiyati korxona faoliyatining samaradorligi, rentabelligi, bozor ulushi va investitsion jozibadorligini ta'sir qilish orqali namoyon bo'ladi.

Birinchidan, aksiz solig'ining oshishi korxonaning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir qiladi. Aksizning oshishi mahsulotlar narxini ko'taradi, bu esa xarajatlarni oshiradi va sof foydani kamaytirishi mumkin. Sotuvlar hajmi va operatsion daromadlar pasayishi mumkin, chunki yuqori narxlar iste'molchilar talabini kamaytirishi va raqobatni kuchaytirishi ehtimoli mavjud. Korxona o'z rentabelligini saqlab qolish uchun xarajatlarni optimallashtirishga va narx siyosatini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ladi.

Ikkinchidan, aksiz narxlarining o'zgarishi korxonaning bozor ulushiga ham ta'sir ko'rsatadi. Aksiz narxlarining oshishi ba'zi iste'molchilarini boshqa arzonroq raqobatchilarga yo'naltirishi mumkin, bu esa korxonaning bozor ulushini pasaytiradi. Shuningdek, mahsulot narxlarining oshishi eksport va importga ham ta'sir qiladi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning narx oshishi eksportni qiyinlashtirishi mumkin, shu bilan birga, importning oshishi korxonaning bozoridagi raqobatni kuchaytiradi.

Uchinchidan, aksiz solig'ining oshishi korxona aktivlarining qiymatiga ham ta'sir qiladi. Narxlarning oshishi va xarajatlarning ortishi natijasida korxona aktivlaridan samarali foydalanishni talab qiladi. Bu holat aktivlarning qiymatini pasaytirishi yoki ularni qayta baholashni talab qilishi mumkin. Investorlar uchun aksiz solig'ining

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/

VOLUME-2, ISSUE-12

oshishi moliyaviy ko'rsatkichlarning pasayishiga olib kelishi mumkin, bu esa investitsion jozibadorlikni kamaytiradi. Shuningdek, aksiz solig'inining oshishi investorlarning xavfini oshirishi va ularga ko'proq ehtiyyotkorlik bilan qarashlarini ta'sir qiladi.

Aksiz solig'i asosan ma'lum tovarlar, masalan, spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, pivo, yoqilg'i, ba'zi turdag'i kosmetika, ba'zi dori vositalari kabi mahsulotlarga qo'llaniladi. Aksiz solig'i to'lanadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yoki import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi. Ushbu soliq, ko'pincha mahsulotning narxiga qo'shiladi va iste'molchilar tomonidan sotib olishda to'lanadi, ya'ni soliqni oxirgi iste'molchi to'laydi. Aksiz solig'i davlat byudjetini to'ldirishda muhim manba bo'lib, ayni paytda muayyan tovarlarning iste'molini cheklash yoki rag'batlantirish maqsadida qo'llaniladi.

1-jadval

Tamaki mahsulotlarining soliq stavkalari miqdorlari

T/r	Tamaki mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari		
		import qilinganda	ishlab chiqariladigan	
1.	Filtrli, filtrsiz sigaretalar, papiroslar, sigarillalar (sigaritlar), bidi, kretek	400 000 so'm/1000 dona + 10 foiz	2021-yil 1-yanvardan: 163 500 so'm/1000 dona + 9 foiz 2021-yil 1-fevraldan: 172 000 so'm/1000 dona + 10 foiz 2021-yil 1-oktabrdan: 185 000 so'm/1000 dona + 10 foiz	
2.	Sigara	4 700 so'm/1 dona		
3.	Chilim uchun tamaki	280 000 so'm/kg		
4.	Chekiladigan, o'rama tamaki	280 000 so'm/kg		
5.	Chaynaladigan, hidlanadigan, shimaladigan tamaki	280 000 so'm/kg		
6.	Qizdiriladigan tamaki tayoqchasi, qizdiriladigan tamakili kapsula va tarkibida tamaki bo'lgan o'xhash tamoyil bilan foydalaniladigan boshqa mahsulotlar	280 000 so'm/kg		
7.	Nikotinli tamakisiz snyus	112 000 so'm/kg		
8.	Tarkibida nikotin mayjud bo'lgan suyuqlik (kartridjlarda, rezervuarlarda va elektron sigaretlarda foydalanish uchun boshqa konteynyerlarda)	500 so'm/ml		

2-jadval

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/

VOLUME-2, ISSUE-12

Alkogol mahsulotlarining soliq stavkalari miqdorlari

T/r	Alkogol mahsulotlari turlari	Soliq stavkalari			
		import qilinganda	ishlab chiqariladigan (1 dal tayyor mahsulot uchun)		
			2021-yil 1-yanvardan	2021-yil 1-fevraldan	2021-yil 1-oktabr dan
1.	Oziq-ovqat xomashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va efiroaldegidli fraksiyadan texnik etil spirti va etil spiritining boshlang'ich fraksiyasi	70%	10 800 so'm	12 500 so'm	13 500 so'm
2.	Aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari	50 000 so'm/ 1 litr uchun	98 000 so'm	116 400 so'm	125 100 so'm
	hajmiy ulushda spirt 40 foizdan ko'p bo'lgan aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari	70 000 so'm/ 1 litr uchun	162700 so'm	192 300 so'm	206 700 so'm
3.	Vino:				
	tabiiy ravishda achitilgan tabiiy vinolar (etil spirti qo'shilmagan holda)	35000 so'm/ 1 litr uchun	7 700 so'm	8 300 so'm	8 700 so'm
	boshqa vinolar, shu jumladan vermut	50000 so'm/ 1 litr uchun	14 500 so'm	16 800 so'm	18 000 so'm
4.	Pivo	50%, biroq 1 litr uchun/15000 so'mdan kam bo'limgan	10 600 so'm	11 700 so'm	12 600 so'm

3-jadval

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/

VOLUME-2, ISSUE-12

**Neft mahsulotlari va boshqa aksiz to‘lanadigan tovarlar va xizmatlarga
soliq stavkalari miqdori**

T/r	Tovarlar (xizmatlar) nomi	Soliq stavkasi	
		2021-yil 1-yanvardan	2021-yil 1-fevraldan
1.	Neft mahsulotlari:		
	Ai-80	200 000 so'm/tonna	240 000 so'm/tonna
	Ai-90 va undan yuqori	250000 so'm/tonna	275000 so'm/tonna
	aviakerosin (sintetikdan tashqari)	180000 so'm/tonna	200000 so'm/tonna
	dizel yoqilg'isi (sintetikdan tashqari)	200000 so'm/tonna	240000 so'm/tonna
	EKO dizel yoqilg'isi (sintetikdan tashqari)	180000 so'm/tonna	216000 so'm/tonna
	dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi	280000 so'm/tonna	340000 so'm/tonna
2.	Polietilen granulalar	20%	
3.	Tabiiy gaz, shu jumladan eksport	20%	
4.	Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan sotiladigan suyultirilgan gaz (bundan "Hududgazta'minot" AJ orqali aholiga sotiladigan hajmlar mustasno), shu jumladan eksport	30%	
5.	Yakuniy iste'molchiga sotiladigan:		
	benzin	1 litr uchun 285 so'm/1tonna uchun 378 480 so'm	1 litr uchun 350 so'm/1tonna uchun 465 530 so'm
	dizel yoqilg'isi	1 litr uchun 285 so'm/1tonna uchun 346 275 so'm	1 litr uchun 350 so'm/1tonna uchun 425 918 so'm
	suyultirilgan gaz	1 litr uchun 285 so'm/1tonna uchun 540 645 so'm	1 litr uchun 350 so'm/1tonna uchun 665 493 so'm
	siqilgan gaz	1 kub metr uchun 435 so'm	1 kub metr uchun 500 so'm
6.	Mobil aloqa xizmatlari	15%	
7.	Xushbo'ylashtiruvchi yoki rang beruvchi qo'shimchalarsiz oq shakar	20%	

Акти

4-jadval

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/

VOLUME-2, ISSUE-12

**Qat'iy belgilangan miqdorlarda soliqni to'lovchi jismoniy shaxslar uchun
soliq stavkasi miqdorlari**

T/r	Faoliyat turi	Bir oylik soliq stavkalari (so'mda)			
		Toshkent shahri	Nukus shahri va viloyat markazlari bo'lgan shaharlar	boshqa shaharlar	boshqa aholi punktlari
1.	Chakana savdo:				
	oziq-ovqat tovarlari va nooziq-ovqat tovarlari bilan	750 000	600 000	300 000	200 000
	dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan	250 000	150 000	100 000	50 000
	gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan	250 000	150 000	100 000	50 000
2.	Maishiy xizmatlar	250 000	150 000	100 000	50 000
3.	Boshqa faoliyat turlari	225 000	150 000	100 000	50 000
4.	Avtomobil transportida yuk tashish xizmatlari:				
	3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobili bilan			150 000	
	3 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobili bilan			225 000	

5-jadval
Soliq stavkalari miqdorlari

T/r	Soliq solish obyektlari	Soliq stavkalari (foizlarda)
1.	Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (bundan umumiyligi maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lganlari mustasno), ko'p kvartirali uylarga uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlari, binolar va inshootlar	0,23
2.	Shaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar, umumiyligi maydoni: 200 kv.m dan va 500 kv.m ga qadar bo'lganlari	0,3
	500 kv.m dan ortiq bo'lganlari	0,4
3.	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiyligi maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	0,3
4.	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijara berishda foydalilanligan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari	2

VOLUME-2, ISSUE-12

Masalan, O‘zbekistonda tamaki va alkogol mahsulotlariga aksiz stavkalarining oshirilishi 2023-yilda davlat byudjetiga 1,5 trillion so‘m qo‘sishimcha daromad keltirdi. Ammo bu bilan birga, ushbu sohada faoliyat yurituvchi kichik va o‘rta biznes korxonalarining sof foydasi 15% ga pasaydi. Bu holat ularning investitsiya kiritish imkoniyatlarini cheklab qo‘yilgan.

Aksizlar siyosatini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- Aksizlarni ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan progressiv tizimga o‘tkazish maqsadga muvofiq. Bu yuqori daromadli iste‘molchilarni ko‘proq soliqlarga tortadi.
- Qora bozorni bartaraf etish uchun samarali nazorat mexanizmlarini joriy etish zarur. Xususan, aksizosti tovarlar uchun QR-kodli markalash tizimini yo‘lga qo‘yish mumkin.
- Aksiz narxlarining oshishi natijasida zarar ko‘radigan korxonalarni subsidiya va imtiyozlar bilan qo‘llab-quvvatlash lozim.
-

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, aksizosti tovarlar narxlari va korxona qiymati o‘rtasidagi bog‘liqlik murakkab iqtisodiy masala bo‘lib, davlat siyosati va korxona boshqaruvi strategiyasini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Aksizlarning oqilona va maqsadli boshqarilishi iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlab, davlat byudjeti va biznes subyektlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, aksizlarning ijtimoiy va iqtisodiy ta‘sirini chuqr tahvil qilib, tegishli choralarini ko‘rish zarur.